# Muhim vazifalar ijrosi - taraqqiyot omili

2021-yil 16-fevral kuni O’zR FA vitse-prezidenti B.Ibragimov va bo’lim boshlig’i J.Toshpulatov Botanika institutiga tashrif buyurdi va ilmiy xodimlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur uchrashuvda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-son Farmoni, shuningdek, Institut faoliyatiga tegishli qarorlar va uning ijrosini ta’minlashdagi muhim vazifalar, ularni amalga oshirishdagi muammolarni bartaraf etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Uchrashuv jarayonida Botanika instituti tomonidan 2020-yilda erishilgan yutuqlar, kamchiliklar, istiqboldagi ilmiy-tadqiqot ishlari haqida gapirilib, hozirgi kunda ilm-fanga qaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, Botanika instituti ilmiy xodimlarini qiynayotgan masalalar muhokama qilindi.